



NAVOIY VILOYATI TOMDI TUMANI HOKIMINING QARORI

210800, Tomdi tuman, Yangi Tomdi qo'rg'oni, tel: (79) 582-13-13, fax: 582-13-22, e-mail: tomdi@nv.uz

2024 - yil 14 - may

57-5-75-Q/24

Tomdi tumani hokimligi

Tuman hokimining 2024 yil 14 maydagi “Tomdi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 56-5-75-Q/24-sonli qarorini bekor qilish haqida

Tuman hokimligi bosh yuriskonsultining 2024 yil 14 maydagi 12-sonli bildirgisini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2021 yil 15 noyabrdagi 19-mh-son buyrug‘i (3333-son bilan 18.11.2021 yilda ro‘yxatdan o‘tgan) hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi 25-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hokimligi bosh yuriskonsultining 2024 yil 14 maydagi 12-sonli bildirgisi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining 2024 yil 14 maydagi “Tomdi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida” gi 56-5-75-Q/24-sonli qarori bekor qilinsin.

3. Tuman hokimligi bosh yuriskonsulti (B.Yusupov) tuman hokimining “Tomdi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi qarori loyihasini o‘rnatilgan tartibda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz)ga jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilishi uchun joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari (N.Beknazarov) zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.b



O.Umarov